

DARIY TILIDA FE'L NEGIZLARINING OTLASHUVI

Xolida Zikrillaevna Alimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Eron-afg'on filologiyasi kafedrası

Filologiya fanlari doktori, dotsent

xolidaxon66@mail.ru

ANNOTATSIYA

Dariy tilida fe'l shakllarining otlashuvi – transpozitsiyaning xususiy modeli bo'lib, unga ko'ra sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning hozirgi va o'tgan zamon negizlari hamda sifatdosh shakllari fe'llik va sifatdoshlik sistemasi (paradigmasi)dan ajralib ot sistemasiga o'tadi. Nutq sathida fe'l shakllarining bunday ko'rinishi yangi pozitsiyaga ega bo'ladi. Chunki so'zning bir turkumdan boshqasiga o'tishi o'zga leksik-grammatik kategoriyaga oid yangi so'zning paydo bo'lishiga olib keladi va bu jarayon o'z navbatida so'z yasalishi bilan chambarchas bog'liq.

Otlashgan fe'l negizlari otga xos kategoriyalarni qabul qiladi. Aksariyat hollarda fe'l negizlari otlashuvi natijasida yangi leksik ma'no kasb etadi. Fe'l negizlarining otlashuvi ham ot so'z turkumi, ham fe'l sistemasining rivojida asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, konversion modellar sodda fe'llarning hozirgi va o'tgan zamon negizlaridan iborat bo'lgan kopulyativ qo'shma so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Hozirgi dariy tilida fe'llarning o'tgan zamon negizi ularning hozirgi zamon negiziga nisbatan ko'proq otlashadi. O'tgan zamon negizlarining otlashuvi fe'llarning barcha struktur ko'rinishlari – sodda, prefiksli va qo'shma fe'llardan, hozirgi zamon negizlarining otlashuvi esa, asosan, sodda fe'llardan bo'ladi.

Maqolada dariy tilida o'tgan va hozirgi zamon fe'l negizlarining otlashuvi, bularning kategorial ko'chish yo'li orqali so'z yasashdagi o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *so'z yasovchi transpozitsiya; konversiya; substantivatsiya; otlashish; sodda fe'l, prefiksli fe'l; qo'shma fe'l; fe'l negizi; o'tgan zamon negizi; hozirgi zamon negizi; sermahsul/kammahsullik.*

ABSTRACT

The substantivization of verb forms in the Dari language is a particular model of transposition, according to which the stem of simple, prefix and complex verbs of the present and past tense, as well as the forms of participles, are separated from the system of verbal forms and are included in the noun paradigm. Since the transition

from one part of speech into another leads to the formation of a new word belonging to another lexical and grammatical category, and this process is inextricably linked with word-formation.

The substantivized verbal stems acquire categories inherent in nouns. In most cases, a new lexical meaning appears as a result of the substantivization of verbal stems. The transition of verbal stems into the category of nouns occupies a special place in the development of both the noun category and the verb system. In particular, conversion patterns lead to the formation of copulative compound words consisting of present and past bases of simple verbs.

In modern Dari, the degree of substantivization of past tense stems is much higher than that of present tense stems. Substantivization of past tense stems is from all structural types of verbs – simple, prefixal and compound verbs, whereas substantivization of present tense stems is mainly from simple verbs.

The article analyzes the substantivization of the past and present tense stems in the Dari language and their role in the intercategory word-formation of this language.

Keywords: *derivational (word-formation) transposition; conversion; substantivization; simple verb; prefixal verb; compound verb; verbal stem; past tense stem; present tense stem; high productivity / low productivity.*

АННОТАЦИЯ

Субстантивация глагольных форм в языке дари - это особая модель транспозиции, согласно которой из системы глагольных выделяются основы простых, префиксных и сложных глаголов настоящего и прошедшего времени, а также формы причастий. формы и включены в парадигму существительного. Поскольку переход от одной части речи к другой приводит к образованию нового слова, относящегося к другой лексико-грамматической категории, и этот процесс неразрывно связан с словообразованием.

Субстантивированные глагольные основы приобретают категории, присущие существительным. В большинстве случаев новое лексическое значение появляется в результате субстантивации глагольных основ. Переход глагольных основ в категорию существительных занимает особое место в развитии как категории существительных, так и глагольной системы. В частности, паттерны преобразования приводят к образованию копулятивных составных слов, состоящих из настоящих и прошедших оснований простых глаголов.

В современном дари степень субстантивизации основ прошедшего времени намного выше, чем у основ настоящего времени. Субстантивация основ прошедшего времени происходит от всех структурных типов глаголов - простых, префиксальных и составных глаголов, тогда как субстантивация основ настоящего времени происходит в основном от простых глаголов.

В статье анализируется субстантивация форм прошедшего и настоящего времени в языке дари и их роль в межкатегориальном словообразовании этого языка.

Ключевые слова: словообразовательная (словообразовательная) транспозиция; конверсия; субстантивация; простой глагол; префиксальный глагол; составной глагол; словесная основа; основа прошедшего времени; основа настоящего времени; высокая производительность / низкая производительность.

KIRISH

Dariy tilida soʻz turkumlari transpozitsiyasi va soʻz yasalishi masalasi tadqiqi muhim. Chunki soʻzning bir turkumdan boshqasiga oʻtishi boshqa leksik-grammatik kategoriyaga oid yangi soʻzning paydo boʻlishiga olib keladi va bu jarayon oʻz navbatida soʻz yasalishi bilan chambarchas bogʻliq. Feʼl shakllarining otlashuvi – transpozitsiyaning xususiy modeli boʻlib, unga koʻra sodda, prefiksli va qoʻshma feʼllarning hozirgi va oʻtgan zamon negizlari hamda sifatdash shakllari feʼllik va sifatdashlik sistemasi (paradigmasi)dan ajralib ot sistemasiga oʻtadi [1, 516-521]. Nutq sathida feʼl shakllarining bunday koʻrinishi yangi pozitsiyaga ega boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Transpozitsiya tushunchasi soʻz (yoki asos)ning bir soʻz turkumidan boshqasiga oʻtish mexanizmini ifodalash uchun birinchi marta oʻtgan asrning 30-yillarida fransuz lingvisti Sh. Balli tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan: «Biz oʻz kategoriyasiga xos maʼnolarni saqlab qolgan holda boshqa kategoriyaga oid ramz rolini oʻynayotgan lingvistik ramz transpozitsiyasi haqida gapirmoqdamiz» [3]. U transpozitsiyaning ikki turini farqlaydi: 1) ramzning leksik maʼnosi oʻzgarmagan holda boshlangʻich sintaktik vazifasining oʻzgarishi – funksional va 2) soʻzning sintaktik vazifasi bilan parallel ravishda yangi leksik maʼno kasb etishi – semantik transpozitsiya. Keyinchalik bu ikki tur leksik va sintaktik derivatsiya sifatida taqqoslandi [8, 146].

Konversiya masalasi birinchi marta A.I. Smirnitkiyning ishlarida yoritilgan. Uning koʻrsatishicha, konversiyada soʻz yasovchi vosita faqat soʻz paradigmasidan iborat boʻladi [7, 70]. Bu talqin O.S. Axmanovanning lugʻatida «konversiya» sharhida oʻz aksini topgan [2, 202]. Transpozitsiya esa «gipostazis» termini ostida bir soʻz

turkumining boshqa soʻz turkumiga konversiya vositasida keng maʼnoda (substantivatsiya va adyektivatsiyani oʻz ichiga olgan holda) koʻchishi, deb izohlanadi [2, 100]. Demak, transpozitsiya konversiyaga qaraganda kengroq tushunchani anglatadi. Dariy tilida konversiya ism (ot, sifat)→feʼl (نام *nām* ‘nom’, ‘ism’ → نامیدن *nāmīdan* ‘nomlamoq’, ‘atamoq’) va aksincha feʼl→ism (ot, sifat) (چشم داشتن *čašm dāštan* ‘umid qilmoq’ → چشم داشت *čašmdāšt* ‘umid’, ‘ishonch’) munosabatlarida yaqqol koʻrinadi.

Dariy tilida transpozitsiya hodisasi oʻrganilmagan. Biroq bundan yarim asr muqaddam L.S. Peysikov fors va baʼzi eroniy tillarda affikssiz soʻz yasalişining qonun-qoidalarini tavsiflash orqali dariy tilida ham bu hodisaning kelgusi tadqiqi uchun nazariy manba yaratdi [9, 14-26]. Qolaversa, fors tilida transpozitsiya tadqiqiga doir mavjud materiallar [9, 14-26; 10, 121-145; 11, 91-98; 14; 12; 13, 165-167] bu usul haqida tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bu nazariy umumlashmalar oʻzaro qarindosh dariy va tojik tillari uchun ham ahamiyatga ega.

Tadqiqotda toʻplangan materiallarning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy, sistem-struktur va komponent tahlil metodlari asosida oʻrganildi.

MUHOKAMA

L.S. Peysikovning fikricha, «feʼl → ot» modeli oʻrta fors tili va ayniqsa, yangi fors tili davrida keng tarqalgan [11, 96]. Bu modelning amalga oshishi ikki xil feʼl negizi, yaʼni hozirgi va oʻtgan zamon negizlarining oʻz feʼllik sistemasidan uzilib, otga xos paradigmani qabul qilishi bilan xarakterlanadi. Feʼl negizlarining otlashuvi ot soʻz turkumining rivojida muhim oʻrin egallaydi.

Maʼlumki, fors-dariy tillarining tarixiy rivojida bu ikki negiz uzoq rivojlanish yoʻlini bosib oʻtgan. Feʼlning hozirgi zamon negizi (HZN) qadimgi fors tili HZNLarining shakllangan, bir qolipga tushgan mahsuli sanaladi. Feʼlning oʻtgan zamon negizi (OʻZN) esa *-ta* suffiksli oʻtgan zamon majhul nisbat sifatdoshidan kelib chiqqan. Oʻrta fors tili davrida feʼlning OʻZN shakl va mazmun jihatidan sifatdoshga teng kelgani sababli bularning ot sistemasiga oʻtishi oson boʻlgan [11, 96]. Birinchi navbatda sodda va prefiksli feʼllarning OʻZN ot turkumiga koʻchgan. Soʻngra bu jarayon feʼliy frazeologik birliklar hisobiga faollashgan. Fors-dariy tillarining ilk davrlaridayoq روا بود *rawâbud* ‘ruxsat’, مصلحت دید *maslahatdid* ‘maslahat’, چشمداشت *čašmdāšt* ‘umid’ kabi qoʻshma otlar qayd qilingan [11, 97]. Hozirgi fors-dariy tillarida ham bu model amalda davom etib kelmoqda.

Oʻtgan zamon feʼl negizlarining otlashuvi

«O'tgan zamon fe'l negizi → ot» modelida sodda, prefiksli va qo'shma fe'llardan ot yasaladi. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida quyidagi otlashgan o'tgan zamon fe'l negizlarining faol qo'llanishini ko'rsatdi:

Sodda fe'llar: باختن *bâxtan* 'yutqazmoq' → باخت *bâxt* 'mag'lubiyat', 'yutqazish'; بافتن *bâftan* 1) 'to'qimoq', 2) 'o'rmoq' (*mas., soch*) → بافت *bâft* 1) 'to'qish'; 2) 'o'rish', 3) *anat.* 'to'qima'; بردن *bordan* 1) 'olib ketmoq', 'olib bormoq'; 2) 'yutmoq', 'g'alaba qilmoq' → برد *bord* 'yutuq'; پرداختن *pardâxtan* 'to'lamoq' → پرداخت *pardâxt* 'to'lov'; خریدن *xaridan* 'sotib olmoq', 'xarid qilmoq' → خرید *xarid* 'xarid', 'sotib olish'; خواستن *xâstan* 'xohlamoq'; 'so'ramoq', 'talab qilmoq' → خواست *xâst* 1) 'istak', 'xohish', 2) 'iltimos', 'so'rov'; دوختن *duxtan* 'tikmoq' → دوخت *dux* 'tikish', 'bichish'; دیدن *didan* 'ko'rmoq' → دید *did* 'ko'rik'; 'fikr' (*nuqtai nazar*); ریختن *rêxtan* 'quymoq', 'to'kmoq'; 'quyilmoq', 'to'karmoq' → ریخت *rêxt* 'qiyofa', 'tashqi ko'rinish', 'qomat'; ساختن *sâxtan* 1) 'qurmoq', 2) 'qilmoq', 'tayyorlamoq' → ساخت *sâxt* 1) 'qurilma', 2) 'ishlangan narsa', 'buyum', 'mahsulot'; سوختن *sôxtan* 'yonmoq', 'kuymoq' → سوخت *sôxt* 'yonish', 'yoqilg'i'; شکستن *šekastan* 'sinmoq' → شکست *šekast* 'mag'lubiyat', 'sinish'; شناختن *šenâxtan* 1) tanimoq, 2) bilmoq → شناخت *šenâxt* 1) 'tanishuv', 2) 'o'rganish', 3) 'bilish', 'anglash'; گذشتن *gozaştan* 'o'tmoq' → گذشت *gozašt* 'o'tish'; گشتن *gaştan* 'aylanmoq', 'sayr qilmoq' → گشت *gašt* 'aylanish', 'sayr'; نهادن *nehâdan* 'qo'yimoq' → نهاد *nehâd* 1) 'tabiat', 'xarakter' (*inson*), 2) *gram.* 'ega', 3) muassasa; نشستن *nešastan* 'o'tirmoq' → نشست *nešast* 1) 'qo'nish' (*samolyot*), 2) 'cho'kish', 'o'tirish' (*binô*), 3) 'yig'ilish'.

Prefiksli fe'llar: برآوردن *barâwardan* va *barâwordan* 'bajarmoq', 'oxiriga etkazmoq'; 'chiqarmoq' → برآورد *barâword* va *barâward* 'taxminiy baho', 'smeta', 'hisob-kitob'; برخاستن *barxâstan* 1) 'turmoq' (*o'rnidan*), 2) 'ko'tarilmoq' → برخاست *barxâst* 1) 'ko'tarilish'; 2) 'parvoz qilish' (*samolyot*); برخوردارن *barxordan* 'to'qnashmoq', 'yuzma-yuz kelmoq' → برخورد 1) 'to'qnashuv', 2) 'uchrashuv' (*kutilmagan*), 3) 'munosabat'; برداشتن *bardâstan* 'ko'tarmoq' → برداشت *bardâšt* 1) 'ko'tarish' (*vaznda*), 2) 'bardosh', 'sabr'; برگشتن *bargaştan* 'qaytmoq' → برگشت *bargašt* 'qaytish'; بازداشتن *bâzdâstan* 'ushlamoq', 'qo'lga olmoq' → بازداشت *bâzdâšt* 'qo'lga olish'; بازگشتن *bâzgaştan* 'qaytmoq' → بازگشت *bâzgašt* 'qaytish'; پیش بردن *pêš bordan* 'rivojlantirmoq' → پیشبرد *pêšbord* 'amalga oshish', 'bajarish'; پیش رفتن *pêšraftan* 'rivojlanmoq', 'o'smoq' → پیشرفت *pêšraft* 'rivojlanish'; درآمدن *darâmadan* 'kirmoq' → درآمد *darâmad* 'daromad', 'kirim'; درگذشتن *dargozaştan* 'vafot etmoq' → درگذشت *dargozašt* 'o'lim'; دریافتن *daryâftan* 'topmoq', 'olmoq' → دریافت *daryâft*

1) ‘olish’, ‘topish’, 2) ‘ish haqi’; ورشکستن *waršekastan* ‘bankrot bo‘lmoq’ → ورشکست *waršekast* ‘bankrot’, ‘inqiroz’.

Qo‘shma fe‘llar: روا دیدن *rawâ didan* ‘ravo ko‘rmoq’, ‘munosib bilmoq’ → رویداد *rawâdid* ‘viza’; روی دادن *rôy dâdan* ‘sodir bo‘lmoq’, ‘yuz bermoq’ → قرار داد *qarâr dâdan* 1) voqea, 2) vaziyat; قرار دادن *qarâr dâdan* ‘o‘rnatmoq’, ‘qo‘ymoq’ → قرارداد *qarârdâd* ‘shartnoma’; کم بودن *kam budan* ‘kam bo‘lmoq’ → کمبود *kambud* ‘etishmovchilik’, ‘defitsit’; به بودن *beh budan* ‘yaxshi’ → بهبود *behbud* ‘yaxshilanish’; بزرگ داشتن *bozorg dâstan* ‘hurmat qilmoq’, ‘qadrlamoq’ → بزرگداشت *bozorgdâst* ‘qadrlash’; یاد داشتن *yâd dâstan* ‘yod (esga) olmoq’ → یادداشت *yâddâst* ‘esdalik’; به دست آوردن *ba dast âwardan* ‘qo‘lga kiritmoq’ → دستاورد *dastâward* ‘muvaffaqiyat’; عمل کردن *amal kardan* ‘amal qilmoq’ → عملکرد *amalkard* ‘faoliyat’.

Misollar:

... می گوید که خواست های شهروندان غور از جمله ساخت و اسفالت جاده های اساسی این ولایت را به حکومت در میان گذاشته است [21, 4]

... *mêgôyad ke xâsthâ-ye šahrwandân-e Ğôr az jomla-ye sâxt wa asfâlt-e jâddahâ-ye asâsi-ye in welâyat râ ba hokumat dar miyân gozašta ast*

‘G‘o‘r shahri aholisining xohishlari, jumladan, bu viloyatning asosiy ko‘chalarini qurish va asfaltlash hukumatga etkazilgan, deydi’;

در سالهای پسین، جهانچیرگی (Globalization) و گونه های دیگر پیشرفت که به سود اقتصاد و سیاست کشورهای بزرگ صنعتی میچرخند، با شتاب شگفتی بر کشورهای دیگر پذیرانده شده است [19]

Dar sâlhâ-ye pasin, jahânçiragi wa gunahâ-ye digar-e pêšraft ke ba sud-e eqtesâd wa siyâsat-e kešvarhâ-ye bozorg-e san‘ati mêçarxad, bâ šetâb-e šegefti bar kešvarhâ-ye digar pazirânda šoda ast

‘Keyingi yillarda sanoati rivojlangan yirik mamlakatlarning iqtisodiyoti va siyosati foydasiga hal bo‘layotgan globallashuv va taraqqiyotning o‘zgacha shakllari hayratomuz shitob bilan boshqa mamlakatlarda qabul qilinmoqda’;

قانون دریافت قرضه های طویل المدت برای خرید منازل تصویب شد [23]

Qânun-e daryâft-e qarzahâ-ye tawilolmoddat barâye xarid-e manâzel taswib šod

‘Turar joylarni sotib olishga (xaridiga) mo‘ljallangan uzoq muddatli kreditlarni olish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi’;

کمیسیون تدارکات ملی هشت قرارداد را به ارزش دو میلیارد افغانی منظور کرد [21, 1]

Komisyun-e tadârokât-e melli hašt qarârdâd râ ba arzeš-e do mêlyârd afğâni manzur kard

‘Milliy ta’minot komissiyasi ikki milliard afg‘oniy qiymatiga teng sakkizta shartnomani tasdiqladi’.

Ayrim yasama so‘zlar yoki ularning yangi ma’nolari dariycha lug‘atlarga kiritilmagan. Bu esa fe’l negizlarining otlashuv jarayoni davom etayotganligini bildiradi. Masalan, hozir kundalik gazetalarda faol qo‘llanayotgan نشستن *nešastan* ‘o‘tirmoq’ fe’lidan نشست *nešast* ‘yig‘ilish’ (*majlis*), عمل کردن *amal kardan* ‘ishlamoq’, ‘faoliyat yuritmoq’ fe’lidan عملکرد *amalkard* ‘faoliyat’, نهادن *nehâdan* ‘qo‘ymoq’ fe’lidan نهاد *nehâd* ‘muassasa’ ma’nolari «Дари-русский словарь»da [6] qayd etilmagan:

محمد اشرف غنى رئيس جمهورية اسلامی افغانستان برای تأمین عدالت در افغانستان به استقلالیت نهادهای عدلی و قضایی تأکید کرد [21, 1]

Mohammad Ašraf Ğani rais-e Jomhori-ye Eslâmi-ye Afğânestân barâye ta’min-e ‘adâlat dar Afğânestân ba esteqlâliyat-e nehâdhâ-ye ‘adli wa qazâyi ta’kid kard

‘Afg‘oniston Islom Respublikasi prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani Afg‘onistonda adolatni ta’minlash uchun adliya institutlari (muassasalari)ning mustaqilligi (zarurligi)ga urg‘u berdi (ta’kidladi)’;

رئيس جمهور گفت: من در امور کاری نهادهای عدلی و قضایی مداخله نمی کنم و به هیچ کسی اجازه مداخله را نمی دهم [21, 1]

Raisjomhor goft: Man dar omur-e kâri-ye nehâdhâ-ye ‘adli wa qazâyi modâxela namêkonam wa ba hêç kas-ê ejâza-ye modâxela râ namêdeham

‘Prezident: «Men adliya muassasalarining amaliy ishlariga aralashmayman va hech kimga aralashuvga yo‘l qo‘ymayman», – dedi’;

رئيس جمهور کشور روز یکشنبه در پنجمین نشست سراسری خارنوالان افغانستان که ... [21, 1]

Raisjomhor-e kešwar rôz-e yakšanba dar panjomin nešast-e sarâsari-ye sâronwâlân-e Afğânestân ke ...

‘Mamlakat prezidenti yakshanba kuni Butun Afg‘oniston prokurorlarining beshinchi yig‘ilishida ...’;

رئيس جمهور غنى در این نشست به صراحت گفت که ... [21, 1]

Raisjomhor-e Ğani dar in nešast ba sarâhat goft ke ...

‘Prezident G‘ani bu yig‘ilishda ochiq-oydin dedi: ...’;

عملکردهای افراد مسلح غیر مسئول ، پذیرفتنی نیست [21, 1]

‘Amalkardhâ-ye afrâd-e mosallah-e ğayr-e mas’ul, paziroftani nêst

‘Mas’ul bo‘lmagan qurolli shaxslarning faoliyati qo‘llab-quvvatlanmaydi’.

Konversiya jarayoni tufayli sodda fe’l O‘ZNIlarining birikuvidan tuzilgan ko‘plab kopulyativ qo‘shma so‘zlar yasaldi: 1) bordobâxt برد و باخت ‘g‘alaba va mag‘lubiyat’; ‘yutuq va yo‘qotish’, 2) ‘taqdirning bevafoqligi (o‘zgaruvchanligi)’;

برخاست *nešastobarxâst* va نشست و برخاست *nešastobarxâst* ‘aloqa’, ‘munosabat’;
‘aloqada bo‘lish’; رفت و آمد ‘qatnov’, ‘harakat’; آمدآمد ‘arafa’; ‘bo‘sag‘a’ kabi.

Fe‘llarning otlashgan O‘ZN qo‘shma fe‘lning ot qismi vazifasida keladi:

روز گذشته مورخ 10 جوزا سال روان دهها راکت از آنطرف خط دیورند به ولسوالی دانگام ولایت

کنر انداخت گردید [22]

Rôz-e gozašta mowarrax-e dahom-e jawzâ-ye sâl-e rawân dahhâ râket az ân taraf-e xatt-e Dyurand ba woloswâli-ye Dângâm-e welâyat-e Konar andâxt gardid

‘O‘tgan kuni, joriy yilning 10 iyunida Dyurand chizig‘ining u tomonidan Kunar viloyatining Dongom uezdiga o‘nlab raketalar otildi’;

سالهاست نبود جاده اساسی و اسفالت شده باعث شده تا غوریان به سختی به گوشه و کنار آن ولایت و

ولایت های همجوار رفت و آمد کنند [21, 4]

Sâlhâ-st nabud-e jâdda-ye asâsi wa asfâlt šoda bâ‘es šoda tâ ġôriyân basaxti ba gôša wa kenâr-e ân welâyat wa welâyathâ-ye hamjawâr raftoâmad konand

‘Bir necha yildirki, asosiy va asfalt ko‘chaning yo‘qligi G‘o‘rliklar viloyatning va qo‘shni viloyatlarning chekka joylaridan qatnashlariga sabab bo‘lmoqda’.

Dariy tilining keyingi taraqqiyotida otlashgan O‘ZN uchun asos bo‘lgan fe‘l iste‘moldan chiqib, ularning o‘rniga asos fe‘lning *otlashgan O‘ZN + yordamchi fe‘l* modeli faollashmoqda. Masalan: بازخواست ‘rasmiy talab, so‘roq’; ‘tergov’ → بازخواست کردن ‘rasmiy talab (so‘roq) yubormoq’, ‘rasmiy ravishda so‘ramoq’; بازدید ‘kelib (borib) ko‘rish’, ‘tomosha qilish’; ‘tekshiruv’ → بازدید کردن ‘kelib (borib) ko‘rmoq’; ‘tekshirmoq’, ‘talab qilmoq’ kabi.

Xulosa qilib aytganda, sodda fe‘llardan, asosan, ساختن *sâxtan*, ریختن *rêxtan*, بافتن *bâftan*, نشستن *nešastan*, پرداختن *pardâxtan*, بردن *bordan*, گشتن *gaštan*, خریدن *xaridan*, باختن *bâxtan*, آمدن *âmadan*, رفتن *raftan*, سوختن *sôxtan*, شکست *šekastan*, دیدن *didan*, خواستن *xâstan*, درگذاشتن *dargozaštan*, پیش رفتن *pêš raftan*, بازگشتن *bâzgaštan*, درخواستن *darxâstan*, ورشکستن *waršekastan*, برخوردارن *barxordan*, درآمدن *darâmadan*, دریافتن *daryâftan*, پیش بردن *pêš bordan*, قرار دادن *qarâr dâdan*, روی دادن *rôy dâdan*, برآوردن *barâwardan*, پسانداختن *pasnadâxtan*, عمل کردن *amal kardan*, یاد داشتن *yâd dâstan* kabilarning O‘ZNIari otlashuvi kuzatiladi.

Hozirgi zamon fe‘l negizlarining otlashuvi

«Hozirgi zamon fe‘l negizi → ot» modelida ham sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llardan ot yasaladi. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida quyidagi otlashgan hozirgi zamon fe‘l negizlarining faol qo‘llanishini ko‘rsatdi. Bular:

Sodda fe‘llar: ترسیدن *tarsidan* ‘savdo’; فروش *forôš* ‘sotmoq’ → فروختن *forôxtan* ‘qo‘rqmoq’ → ترس *tars* ‘qo‘rquv’; لرزیدن *larzidan* ‘titramoq’, ‘qaltiramoq’, ‘silkinmoq’ → لرز *larz* 1) ‘titroq’, ‘qaltiroq’; 2) ‘seskanish’, ‘sapchib tushish’; فریفتن

ferêftan va *farêftan* ‘aldamoq’ → *ferêb* va *farêb* ‘aldov’, *firib* (pand) berish; *fešordan* va *fošordan* → فشار *fešâr* 1) ‘bosim’, 2) ‘siquv’, ‘tazyiq’, 3) *gram.* ‘urg‘u’, 4) *med.* ‘to‘lg‘oq’; *piwastan* 1) ‘bog‘lanmoq’, ‘birikmoq’; 2) ‘bog‘lamoq’, ‘biriktirmoq’ → *piwand* 1) ‘aloqa’, 2) ‘bog‘lanish’, 3) ‘kurtak payvand’, 4) *anat.* ‘bo‘g‘im’, 5) *gram.* ‘bog‘lama’; *bastan* 1) yopmoq, 2) bog‘lamoq → بند *band* 1) ‘aloqa’, 2) ‘hibs’, 3) ‘damba’, ‘to‘g‘on’, 4) ‘to‘siq’, 5) *anat.* ‘bo‘g‘im’, 6) ‘tugun (uzel)’, 7) ‘arqon’, ‘chilvir’, 8) ‘tog‘ tizmasi’; *gozaštan* 1) o‘tmoq (*vaqt, voqea va sh.k.*), 2) kesib o‘tmoq (*yo‘l va sh.k.*), 3) *biror narsadan* kechmoq → گزر *gozar* 1) ‘o‘tiladigan yo‘l’, ‘guzar’, 2) ‘kechuv (*qayiq, parom va sh.k. o‘tadigan joy*)’, 3) ‘tor ko‘cha’; *pendâštan* ‘deb o‘ylamoq’, ‘faraz qilmoq’ → پندار *pendâr* ‘fikir’, ‘faraz’, ‘gumon’, ‘taxmin’; *sôxtan* ‘yonmoq’, *kuymoq* → سوز *sôz* ‘og‘riq’, ‘azob’; *šetâftan* ‘shoshmoq’ → شتاب *šetâb* 1) ‘shoshqaloqlik’, 2) ‘shitob’, ‘tezlik’; *šekastan* ‘sinmoq’ → شکن *šekan* 1) ‘egik’, ‘bukiladigan joy’, ‘burushiq’, 2) ‘gajak (*soch*)’; *gereftan* 1) ‘olmoq’, 2) ‘tutmoq’ → گیر *gir* ‘qiyinchilik’, ‘mashaqqat’.

Prefiksli fe‘llar: باز گفتن *bâzgoftan* ‘gapirib bermoq’, ‘hikoya qilib bermoq’ → باز گو(ی) *bâzgô(y)* ‘hikoya qilish’, ‘bayon qilish’; پس انداختن *pasandâxtan* ‘bir chetga qo‘ymoq’; ‘ajratib (olib) qo‘ymoq’, ‘saqlab qo‘ymoq’ → پس انداز *pasandâz* ‘jamg‘arma’.

Qo‘shma fe‘llar: راه رفتن *râh raftan* ‘yurmoq’, ‘yo‘l yurmoq’ → راهرو *râhraw* 1) ‘yo‘lak’, ‘piyodalar yo‘li’, 2) ‘yo‘lovchi’; کار کردن *kâr kardan* ‘ishlamoq’ → کارکن *kârkon* ‘ishchi’, ‘xodim’; هوا کشیدن *hawâ kašidan* ‘havo(sini) tortmoq’ → هواکش *hawâkaš* 1) ‘fortochka’, 2) ‘tuynuk’.

Misollar:

گادی وان ها از ترس، زن های بی بچه و بی مرد را سوار نمی کردند [17, 49]

Gâdiwânhâ az tars, zanhâ-ye bêbača wa bêpard-râ sawâr namêkardand

‘Izvoshchilar qo‘rqyvdan o‘g‘il bolasiz va erkaksiz ayollarni olmasdilar’;

گنجشک را که از دستش گرفتم چنان پرپرک زد که نفامیده فشاری دادم که دلم سوخت برایش

[16, 11]

Gonješâk râ ke az dast-aš gereftam čonân parparak zad ke nafâmidâ fešâr-ê dâdam ke del-am sôxt barâyaš

‘Chumchuqni qo‘lidan olganimda shunday pitir-pitir qilardiki, tushunmay ezib (*bosim*) yuboribman, unga ichim achidi’;

به نظرم آمد همه پیوند هایی که موجود زنده یی را به زنده گی می بندد، در این فیل گسسته است [18]

Ba nazar-am âmad hama paiwandhâ-yê ke mawjud-e zenda-yê râ ba zendagi mēbandad, dar in fil gosasta ast

‘Nazarimda, shu filda tiriklikni hayotga bog‘lovchi barcha aloqalar bir-biridan uzilgan’;

رهنورد زریاب در سال ۱۳۲۳ خ در گذر ریکاخانه که از کوچه های قدیم کابل است، در خانواده ی متوسط زاده شد [20]

Rahnaward Zaryâb dar sâl-e 1323-e xoršêdi dar gozar-e Rikâxâna ke az kôçahâ-ye qadim-e Kâbol ast, dar xânewâda-ye motawasset zâda šod

‘Rahnaward Zaryob shamsiy 1323 yili Kobulning qadimgi ko‘chalaridan bo‘lmish Rikoxona guzarida o‘rtahol oilada dunyoga keldi’;

از رهنورد زریاب تا اکنون این آثار چاپ گردیده اند: "آوازی از میان قرن ها"، "نقش ها و پندارها"... [20]

Az Rahnaward Zaryâb tâ konun in âsâr çâp gardida-and: «Âwâz-ê az miyân-e qarnhâ», «Naqshâ wa pendârhâ»...

‘Shu vaqtga qadar Rahnaward Zaryobning quyidagi asarlari chop etilgan: «Asrlar qa‘ridan sado», «Izlar va farazlar...’.

Fe‘l negizlarining otlashuvi dariy tili so‘z yasashida katta o‘ringa ega. Jumladan, konversion modellar sodda fe‘llarning HZN va O‘ZNlaridan iborat bo‘lgan kopulyativ qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan: پخت و پز, ‘aylanish’, ‘sayr’, *gaštogozâr* ‘gəst’ va گذار, ‘oldi-sotdi’, *xaridoforôš* خرید و فروش *poxtopaz* ‘pishir-kuydir’ va b.

زنها حق ندارند به داکتر مرد بروند. بدتر اینکه آنها مانند بردگان جنسی خرید و فروش میشوند [19]

Zanhâ haq nadârând ba dâktar-e mard berawand. Badtar inke ânâ mânand-e bardagân-e jensi xaridoforôš mēšawand

‘Ayollarning erkak shifokorga murojaat qilishga haqi yo‘q. Bundan ham yomoni, ular jinsiy qullardek oldi-sotdi qilinadilar’.

NATIJALAR

So‘z turkumlari transpozitsiyasi morfologiya bilan sintaksisning, leksikologiya bilan so‘z yasashining kesishgan nuqtalarida turadi; til strukturasi turli aspektlariaro aloqadorligi va til sathlariaro munosabatlarning murakkab chatishuvini belgilab beradi [5, 5-6]. Transpozitsiya va uning so‘z yasash sistemasidagi o‘rni fanda kam o‘rganilgan. Tilshunoslikda bu hodisaning «konversiya» (A.I. Smirnitskiy), «so‘z yasashning morfologik-sintaktik usuli» (V.V. Vinogradov), «transpozitsiya» (Sh. Balli), «implitsit so‘z yasash» (V. Fleysher), «translyatsiya» (L. Tenyer), «nul morfemali derivatsiya» (G. Marchand), «noxususiy (nesobstvennaya) derivatsiya» (N.D. Arutyunova), «transformatsiya» (V.G. Migirin) terminlari bilan nomlanishi

uning munozarali mavzu ekanini bildiradi. SHuningdek, diaxron va sinxron ko‘chish hodisalari, til sathlarida ko‘chishga olib keluvchi ichki va tashqi omillar, ko‘chish hodisasini o‘rganishning asosiy metodlari, ko‘chish shartlari va hokazo masalalar o‘z echimini to‘la topmagan.

Transpozitsiya formulasi so‘z yasaliş jarayonini diaxronik (so‘zning bir leksik-grammatik kategoriyadan ikkinchi leksik-grammatik kategoriya tomon siljishi) va sinxronik (so‘zning bir turkumdan boshqasiga o‘tishining muntazam ko‘rinishlari) jihatdan ifodalaydi [4, 171]. Bular o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yish mushkul. Transpozitsiya hodisasining leksik (so‘z yasaliş) va grammatik planlarda qaralishi bejiz emas. Bunda leksik planda yangi ma’nodagi leksik birliklarning vujudga kelishi, grammatik planda esa boshqa turkumdagi so‘zning o‘zga sintaktik funksiya bajarishi nazarda tutiladi (leksik so‘z va grammatik so‘z). Ma’lumki, ko‘chayotgan so‘zlarda dastlab yangi semantika vujudga kelmaydi, bir xil nomemalik xususiyati saqlanaveradi: bir nomema ikki leksemani ifodalaydi. Boshqa turkumga xos grammatik (aniqrog‘i, sintaktik) xususiyat uning funksiyasiga qo‘shimcha tarzda yuklanadi. Shuning uchun transpozitsiya hodisasining dastlabki bosqichida asosan sintaktik (grammatik) xususiyat ustun bo‘ladi. Transpozitsiya holatida qo‘llanadigan so‘z keyinchalik o‘zining so‘nggi – ko‘chgan grammatik funksiyasida qat’iylasha, semantikasida yangi ma’nolar vujudga kelsa, kelgusida u «yangi so‘z» bo‘lib tanilishi mumkin [15, 33-34].

Dariy tilida fe‘l shakllarining otlashuvi transpozitsiyaning xususiy modeli bo‘lib, ham ot so‘z turkumi, ham fe‘l sistemasining rivojida muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA

1. Fe‘l negizlari otlashganda, o‘zlarining asl ma’nolarini to‘la yoki qisman yo‘qotib, predmet ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. SHu jihatdan ular ot turkumiga ko‘chgan hisoblanadi.

2. Fe‘l shakllarining otlashuvi ham ot so‘z turkumi, ham fe‘l sistemasining rivojida asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi dariy tilida fe‘llarning O‘ZN ularning HZNGa nisbatan ko‘proq otlashadi. O‘ZNlarining otlashuvi fe‘llarning barcha struktur ko‘rinishlari – sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llardan, HZNlarining otlashuvi esa, asosan, sodda fe‘llardan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Alimova Kh. Dari Word-forming Transposition Phenomenon // International Journal of Pharmaceutical Research, December 2020,

Volume 12, Supplementary Issue 3. – P. 516-521. ISSN 0975-2366.

DOI: <https://doi.org/10.31838/ijpr/2020.SP3.070>

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с. (Akhmanova O.S. Dictionary of Linguistic Terms. Moscow, Soviet Encyclopedia, 1966, 608 p.)

3. Взаимонаправленная транспозиция ‘имя лица – признак лица’ в русском и английском языках // Библиотечный каталог российских и украинских диссертаций, 2004 (Interdirectional transposition ‘face name – face feature’ in Russian and English // Library Catalogue of Russian and Ukrainian Dissertations, 2004) // www.rus-lang.com

4. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – С. 171. (Zemskaya E.A. Modern Russian language. Word formation. Moscow, Education, 1973. – P. 171.)

5. Ким О.М. Транспозиция на уровне частей речи и явление омонимии в современном русском языке. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 5-6. (Kim O.M. Transposition at the level of parts of speech and the phenomenon of homonymy in modern Russian. Tashkent, Fan, 1978. – P. 5-6.)

6. Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. Дари-русский словарь. – М.: Русский язык, 1986. – 752 с. (Kiselyeva L.N., Mikolaychik V.I. Dari-Russian dictionary. Moscow, Russkiy yazyk Publ., 1986, 752 p.)

7. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: Наука, 1965. – 80 с. (Kubryakova E.S. What is word-formation. Moscow, Nauka, 1965, 80 p.)

8. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – 200 с. (Kubryakova E.S. Types of linguistic meanings. Semantics of the derivative word. Moscow, Nauka, 1981, 200 p.)

9. Пейсиков Л.С. Транспозиция как способ словообразования в иранских языках // Иранская филология / Труды науч. конф. по иранской филологии 24-27 января 1962 г. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1964. – С. 14-26. (Peisikov L.S. Transposition as a way of word formation in Iranian languages // Iranian philology / Proceedings of scientific. conf. on Iranian philology, January 24-27, 1962. L: Publishing house of the Leningrad University, 1964. – P.14-26.)

10. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – 199 с. (Peisikov L.S. Essays on word formation of the Persian language. Moscow: Publishing house of Moscow University, 1973, 199 p.)

11. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1975. – 206 с. (Peisikov L.S. Lexicology of the Modern Persian Language. - Moscow: Publishing house of Moscow University, 1975. 206 p.)
12. Потапов Ю.Б. Словообразовательная транспозиция в персидском языке в сопоставлении с русским: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1986. – 170 с. (Potapov Yu.B. Vocabulary transposition in the Persian language in comparison with Russian: Dis. ... cand. philol. sciences. Moscow, 1986, 170 p.)
13. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 165-167. (Rubinchik Yu.A. Grammar of the modern Persian literary language). Moscow, “Eastern Literature” RAS, 2001. – P. 165-167.)
14. Shaki M. A study on nominal compounds in neo-persian. – Praha, 1964. – 116 p.
15. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол.фан.номз. ... дис. – Тошкент, 1996. – Б. 33-34. (Turdiboev T.H. Conversion of auxiliary words in Uzbek language: Dis. ... cand. philol. sciences. Tashkent, 1996. – P. 33-34.)
16. تقى واحدى دای پولاد. گلیمباف. – کابل: انجمن قلم افغانستان، ۱۳۸۶ش. – ص ۱۱.
17. حمیرا قادری. نقره، دختر دریای کابل. – تهران: روزگار، ۱۳۸۷ش. – ص ۴۹.
18. سپوژمی زریاب. پشک هایی که آدم میثوند//<http://www.kabulnath.de>
19. سپوژمی زریاب. قلمی در برابر کابوس//<http://www.kabulnath.de>
20. نعمت حسینی. زندگی نامه رهنورد زریاب/<http://database-aryana-encyclopaedia.blogspot.com>
21. روزنامه «انیس». – ۲۳ عقرب ۱۳۹۶ هـ. ش (2017.11.14)
22. <http://mod.gov.af/fa/blog/33401>
23. <http://kabulnews.af/dari/index.php/afghanistan>